

## ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA AQLIY RIVOJLANISH

**Qahharova Sayyora Bahodirovna**

Xalqaro Innovatsion Universiteti Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasini o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14864183>

**Annotatsiya.** Maqolada ilk o'spirinlik davridagi bilish jarayonlarining rivojiga ta'rif berilgan. O'spirinlarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlanishi, moddiy dunyo to'g'risidagi shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkip topganidan keyin tafakkurning tanqidiy xususiyati rivojlana boshlashi tahlil qilinadi. Shuningdek, kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligini va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, nerv sistemasining tipi, analizatorlar emotsional-irodaviy sifatlarini ham hisobga olish zarur. Inson qanchalik ko'tarilsa, shunchalik o'ziga xoslik, turli-tuman individual sifatlar, shaxsiy fazilatlar va natijada psixologik yetuklikka ega bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Aqliy rivojlanish, layoqat, mehnat, fikr, xarakter, tafakkur, sezgi, jamiyat, shaxs, kollej, maktab.

## MENTAL DEVELOPMENT IN EARLY ADOLESCENCE

**Abstract.** The article describes the development of cognitive processes in early adolescence. It is analyzed that adolescents develop the ability to plan their activities in advance, after forming personal opinions, judgments about the material world, and a scientific worldview, the critical nature of thinking begins to develop. Also, when choosing a profession, early adolescents should take into account their inclinations and abilities, personal qualities, type of nervous system, emotional-volitional qualities of analyzers. The higher a person rises, the more he acquires originality, various individual qualities, personal qualities and, as a result, psychological maturity.

**Keywords:** Mental development, ability, work, thought, character, thinking, intuition, society, personality, college, school.

## УМСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ В РАННЕМ ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

**Аннотация.** В статье описывается развитие познавательных процессов в раннем подростковом возрасте. Анализируется, что у подростков формируется способность заранее планировать свою деятельность, а после формирования личного мнения, суждения и научного мировоззрения о материальном мире начинает развиваться критический характер мышления. Также при выборе профессии младшим подросткам следует учитывать свои склонности и способности, личностные качества, тип нервной системы, эмоционально-волевые качества анализаторов. Чем выше поднимается человек, тем большую уникальность, многообразие индивидуальных качеств, личностных качеств и, в конечном итоге, психологическую зрелость он приобретает.

**Ключевые слова:** Умственное развитие, способности, работа, мысль, характер, мышление, интуиция, общество, личность, колледж, школа.

Yuqori sinf o‘quvchilarining bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo‘yicha har tomonlama o‘ylagan o‘z fikrini berishga yordam bera oladi. Bu yoshdagi o‘spirinlar atrofdagi turli voqealardagi haqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor yechimlar, ma’lumotlar emas, balki shu yechim va ma’lumotlarni o‘zlari mulohaza yurgizib, qidirish jarayonining o‘zi ko‘proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo‘yicha bahs va munozaralar yuritishga va ularning fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar. O‘spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi. Lekin, bu rivojlanish o‘spirinning o‘ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o‘spirinlar to‘la ravishda mantiqiy tafakkurga egab o‘ladilar, nazariy fikr yuritib, o‘zlarini-o‘zlari tahlil eta oladilar. Ular endi bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o‘z munosabatlarini bildira oladilar. O‘spirinlik davrida bolalar juda ko‘p ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yengishda foydalana oladilar. O‘spirinning o‘z-o‘zini anglashi o‘quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o‘zgarishida o‘z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. O‘spirinlik yoshi o‘qish, menat, muloot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiyligi va maxsus layoatlarning rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. O‘spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol kechadi. Lekin, bu rivojlanish o‘spirinning o‘ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi.

O‘spirinlik davriga kelib, juda ko‘p bolalarda o‘z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish ham o‘spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘spirinning o‘quv mashg‘ulotiga munosabati o‘z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagiligi o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. O‘quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi, o‘zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarning o‘qishga munosabati ham o‘zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo‘la boshlaydilar.

O‘spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko‘lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazolarga qiziqishi kuchayadi. O‘spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishining oqilona yo‘li, vositalari ta’lim jarayonida yetakchi vazifani ado eta boshlaydi. O‘spirin turli janrdagi adabiy asarlarni o‘qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga o‘rganib boradi.

O'spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o'spirin ongida tevarak-atrofdagi voqelik to'g'risida qancha miqdorda mulohazalar, muhokamalar va tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda esa, moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatlari, ularning o'zaro bog'lanish va munosabatlari o'spirinning fikrlash faoliyatida to'liq aks etganligi tushuniladi. Tafakkurning kengligi o'zining mazmundorligi va chuqurligi sifatlari bilan muntazam bog'liq bo'ladi. Tafakkurning mustaqilligi deganda o'spirinning shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga yangi vazifalar qo'ya bilishi, bu vazifalarni hech kimning yordamisiz, oqilona usullar bilan mustaqil hal qilish uquvchanligani tushunish kerak. Tafakkurning tezligi qo'yilgan savolga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Ayrim qiz va yigitlar aqliy rivojlanishdan orqada bo'lib, o'quv materiallarini o'zlashtirishga ulgurmaydilar yoki qiynaladilar, ular tevarak-atrofdagi voqelikni bilib olish maqsadida umumlashtiruvchi tushunchalardan foydalanishni bilmaydilar, chunki bu tushunchalar, xulosalar, fikrlar, hodisa va faktlarni tadqiq qilishni yodlab oladilar. Bolalarni aqliy jihatdan rivojlantirish uchun ularning o'qish faoliyatlarini faollashtirish va ularning bilimlarini ongli ravishda o'stirish kerak.

O'spirinlarning aqliy jihatdan rivojlanishida nazariy tafakkurning roli kattadir. O'spirin adabiy asarlarni o'qish va tushuntirish orqali mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish va munozaralarga o'rgana boradi. Unda astasekin tabiat va jamiyat haqida o'zining nuqtai nazari, e'tiqodi, qarashi shakllanadi. Ma'lumki, shaxsning ana shu fazilatlari unda fikrlash, mustaqil o'ylash, to'g'ri hukm va xulosalar chiqarish, qat'iy qarorga kela olishi natijasidir. O'spirinlarning adabiy asarni baholashi, u haqda shaxsiy fikrlarni bildirishi, muammoning tomonlari yuzasidan bahslashuvi insoniy xislatlarning muayyan darajada ishtirok etishi aql tanqidligining aynan o'zginasidir. Turmushda uchraydigan noo'rin tanqidiylik esa o'spirinning badiiy didi va hayotiy tajribasi zaifligidir. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar tafakkuridagi tanqidiylikni haqqoniylig darajasiga ko'tarishdan, ularga voqelikka odilona, oqilona, tanqidiy nuqtainazardan qarashni o'rgatishdan iborat. O'spirinlarda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlna boshlaydi. Aql tanqidiyligining rivojlanishi o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishta, ta'lim jarayonida tashabbuskorlikka, voqelikni isbotlash va asoslash ko'nikmalari tarkib topishiga imkon yaratadi. Hodisalar to'g'risida hukm va xulosa chiqarish, tasdiqlash yoki inkor qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'spirin qobiliyatni va iste'dodi ta'lim jarayonida, mehnat faoliyatida rivojlanadi.

## REFERENCES

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010. - 544 b.
2. G'oziyev E. O'spirinlar axloqi va ruhiyati. Oila etikasi va psixologiyasi. - T.: Universitet, 2000. -33-38 b.
3. G'oziyev E. Kasbiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2008. - 213 b.
4. G'oziyev E. Sotsial psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2015.
5. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zR OO'MTV. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 480 b.
6. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi: 0 'quv qo'llanma. - T.: "Universitet", 2001. - 139 b.
7. Shonazarov J.U. Kasbiy psixologiya. Ma'ruzalar matni Qarshi-2020 yil
8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2014.
9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. T: «O'zbekiston», 2017.
10. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», 1998.
11. M.J.Ergasheva Kichik maktab yoshidagi oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilarida irodaviy sifatlarni shakllanishi "*Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi*" *ilmiy-amaliy jurnal № 1*, 2025
12. Ergasheva M. (2025). OILAVIY BOLALAR UYI SHAROITIDA TARBIYALANAYOTGAN BOLALARDA SENZITIVLIKNING O'ZIGA XOSLIGI. *Modern Science and Research*, 4(1), 560–563. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63780>